



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

G'azalning g'oyalari va mazmunini tugal talqin qilib berdik, deyishdan yiroqmiz. Chunki bu alohida murakkab g'azal. Lekin Navoiyning har bir asari ma'nosini chaqishga urinsak, uni oz-ozdan bo'lsa-da, kashf eta boramiz.

QO'QON ADABIY MUHITIDA NAVOIYGA IZDOSHLIK

Fayzulloyev Baxtiyor Bobojonovich

filologiya fanlari nomzodi, dotsent, akademik Bobojon G'afurov nomidagi

Xo'jand davlat universiteti (Tojikiston)

Email: b.fayz.1961@mail.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/DRQK7120

Annotatsiya: Maqolada Qo'qon adibiy muhitida muayyan tarixiy davrlarda yuzaga kelgan tatabbunavislik taraqqiyotiga e'tibor qaratildi. Unda tatabbu asarning o'ziga xos xususiyatlari haqida ham qisqacha ma'lumot berib o'tildi. Ushbu adabiy muhitda Alisher Navoiy ijodiga ergashib badiiy jihatdan mukammal tatabbular yaratgan Uvaysiy, Nodira, Muqimiy hamda Furqat kabi mumtoz shoirlarning tatabbu g'azallaridan namunalar qiyosiy tahlil qilinib, ularning badiiy mahorat sirlari ko'rsatib o'tildi. Shuningdek, adabiy muhitlarda yuzaga kelgan mav'iza, masnu', matbu' kabi tatabbu g'azallar xususida ham qisqacha ma'lumotlar berildi.

Kalit so'zlar: an'ana, ta'sir, o'ziga xoslik, mahorat, g'azal, tatabbu, talqin, vazn, qofiya, radif.

FOLLOWING NAVAII IN THE QAKAN LITERARY ENVIRONMENT

Abstract: This article examines the development of literary writing within the Kokand literary environment during specific historical periods, with a particular focus on the creative contributions of Tababb. It provides an overview of Tababb's distinctive literary style and its influence within this cultural milieu.

A comparative analysis is conducted on the tatabbu poetry of notable poets such as Uvaysi, Nadir, Mukimi, and Furkat, who skillfully crafted refined and artistically sophisticated tatabbu works inspired by Alisher Navoi. The study explores the intricate techniques employed by these poets, uncovering the depth of their artistic mastery. Additionally, brief insights are provided into the tatabbu ghazals that emerged in this literary environment, including forms such as mavisa, masnavi, and matbu, highlighting their stylistic and thematic significance.

Keywords: tradition, influence, originality, talent, ghazal, tatabbu, comparison, meter, rhyme, redif.

An'anaviylik badiiy adabiyotning muhim belgilaridan. Chunki adabiyot taraqqiyotining o'zak nuqtalaridan birini an'analar tashkil etadi. Bu hol mumtoz adabiyotda ravshan ko'zga tashlanadi. Buni birgina tatabbunavislik an'analarida ham ko'rish mumkin. Tatabbunavislik butun Sharq mumtoz adabiyotida, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida, ayniqsa, Qo'qon adabiy muhitida ham chuqur tomir otgan bo'lib, mustahkam va boy an'analarga ega ekanligi ko'zga tashlanadi.

XIX asr boshlariga kelib, Markaziy Osiyodagi uchta davlat – Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonligi to'la markazlashdi. Qayd etish lozimki, xonliklar madaniy hayotidagi rivojlangan tomon adabiy muhit edi. Chunki adabiy muhit rivojiga bevosita

xon va uning atrofidagi yirik amaldorlar e'tibor qaratgan bo'lib, ularning ko'pchiligi shoirlardan iborat edi. Umuman olganda, XIX asrning birinchi yarmi adabiyoti badiiy ijodkorlarining ko'pligi va sermahsulligi bilan ajralib turadi. Avvalo shu narsani maxsus qayd etish lozimki, bu davrda zullisonaynlik nihoyatda keng tus oldi va tatabbunavislik yuksak cho'qqiga ko'tarildi. Shu tufayli hatto boshdan-oxir tatabbulardan tuzilgan tazkiralar paydo bo'ldi. Bu davr tatabbunavisligi ikki yo'nalishda rivojlandi: bu jarayon oldin o'tgan shoirlarning asarlariga tatabbu bog'lash, soniyan esa, zamondosh ijodkorlarning o'zaro bir-birlarining she'rlariga tatabbu bog'lash shaklida yuz berdi. Bu usul ko'proq shoh shoir she'rlariga tatabbu bog'lash tarzida amalga oshdi. Bu fikrni Fazliy Namangoniy tuzgan "Majmuayi shoiron" tazkirasidagi tatabbular tartibi ham tasdiqlaydi.

Bu davr adabiy jarayonida salaflar she'riyatiga tatabbunavislik uch yo'nalishda rivojlandi. Uning birinchisi, o'zbek mumtoz shoirlari, xususan, Navoiy, Bobur va Huvaydo she'rlariga tatabbu bog'lash. Ikkinchisi, fors-tojik shoirlari, xususan, Hofiz, Jomiy va Bedil she'rlariga tatabbunavislik. Uchinchisi, ozarbayjon shoiri Fuzuliy she'riyatiga tatabbu bog'lash shaklida rivoj-u ravnaq topdi. Bu uch yo'nalishdagi tatabbunavislik Qo'qon adabiy muhitida ham, shuningdek, Xiva va Buxoro adabiy muhitlarida ham izchil davom ettrildi. Biroq, alohida qayd etish lozimki, bu davrda ham barcha adabiy muhitlarda Alisher Navoiy g'azallariga tatabbu bog'lash g'oyatda faol bo'ldi. Buni barcha shoirlar va hatto shoirlar ijodida ham kuzatish mumkin. Shulardan biri, bu davrda faol ijod etgan va hatto shoira Mohlaroyim – Nodiraga ustozlik qilgan Jahon otin Uvaysiydir.

Uvaysiy ijodida Navoiy, Fuzuliy va Mashrab an'analari izchil davom ettirilgan. Shoira ijodida, xususan, Navoiy she'rlariga tatabbu va taxmislar ko'pdir. Uvaysiyning "Gila", "Kokuling", "Tushdi o't", "Isi" singari tatabbulari Navoiy g'azallariga bog'langani bilan xarakterli. Ularda Uvaysiy Navoiyning mazmun va shaklga doir an'alarini ijodiylik bilan rivojlantirgani ma'lum bo'ladi. Chunonchi, shoira "Isi" radifli tatabbusida Navoiyning shu radifda yozilgan g'azalidagi mavzu, vazn, qofiya va obrazga doir an'alar rivojlantirilgani yaqqol ko'zga tashlanadi. Navoiy g'azali ramali musammani mahzuf vaznida bo'lib, muhabbat mavzusidadir. Uvaysiy tatabbusi ham Navoiy g'azali vaznida va o'sha mavzuda bitilgan. Tatabbuda Navoiy g'azalidagi qofiyaga ohangdoshlik ham mavjud. Uvaysiy o'z tatabbusida hatto Navoiy she'ridagi rayhon va Kan'on singari qofiya so'zlarni takroran qo'llaydi. Biroq shoira ularga yangi ma'no yuklaydi. Voqean, Navoiy lirik qahramoni hijronda jonsiz holatga kelgan paytda, ma'shuqaning yuz va labi ustidagi xat-mayin tuklardan esgan nasim unga yangidan jon bag'ishlar ekan, endi u gul va rayhon isini rad etsa, Uvaysiy lirik qahramonini esa sahar payti rayhon isi uyg'otadi. Zero, unda yor isi jilva qilardi. Yoki Navoiy lirik qahramoni yor hajrida yig'layverib ko'zdan ajralgach, gulning o'zi va isidan bahra olib, ko'zi ochiladi. Shoir tasviricha, bu narsa farzandi Yusuf hajrida yig'layverib, ko'zidan ajralgan Ya'qub payg'ambarning Kan'onga yuborilgan ko'ylakni ko'ziga surtgach va undan o'g'li isini tuygach ko'zlari ochilganga o'xshaydi.

Shu tarzda Navoiy tashbih va talmeh san'atidan foydalanib qo'llagan adabiy timsollarining yangi qirralarini ochsa, Uvaysiy ham Navoiy fikrlarini takrorlamagan holda an'anaviy timsollarga yangi ma'nolar yuklab, mavzuni chuqurroq yoritishda ulardan mohirona foydalanadi. Qayd etish lozimki, garchi Navoiy she'rida ham, Uvaysiy tatabbusida ham muhabbat mavzusi tasvirga tortilgan bo'lsa-da, ularda farq

bor. Navoiy she'ridagi muhabbat tasvirida so'fiyona mazmun kuchli. Uvaysiy tatabbusida dunyoviy muhabbat tasviriga ko'proq urg'u berilgan.

Shoira lirik qahramon ishq, hijron azoblari, vasl lazzati va undan keyingi mashaqqatlarni tazod san'ati orqali hayotiy tasvirlaydi. Shoir talqinicha, vasl bor joyda, hijron bor. Axir tabassumdan keyin ko'z yoshi keladiku! Biroq har qanday holatda ham ishq yuksakdir. Ishq oshiqni ma'shuq, ma'shuqni oshiq qilishi mumkin. She'r lirik qahramoni ayol. Lekin ishq uni Majnun qilgan. Ishq tufayli u ham Zulayho holiga tushgan. O'ngida ko'rolmagan sevgilisi va hatto uning isiga tushida yetishni orzu qiladi. Ishq azoblaridan bemor holga kelgan lirik qahramon ishqning o'zidan davo istaydi. Bu davo visoldandir. Lirik qahramon uchun visol Luqmoni hakimdir. Xayriyatki, uning isi yetishyapti:

Yusufi soniy firoqidin ne tong topsam xabar,
Uyqu ichra chun Zulayhoga yetib Kan'on isi.
Za'f edi jismim muhabbat ranjidan bir necha kun,
Shukrilillah, keldi tandin ushbu dam Luqmon isi [Uvaysiy, 1983:84].

Shoira har ikkala baytda ham talmeh san'atini qo'llab, lirik qahramonning ishqiy kechinmalarini yorqin aks ettirishga erisha olgan. Shoira talqinicha, ishq qudratli kuchga ega. Buni shoira "Kerakmazmi sango?" radifli ikkita tatabbusida ham mahorat bilan chizgan. Uvaysiyning "Kokuling", "Tushti o't" singari Navoiy g'azallariga bog'lagan tatabbularida ham ishqning so'fiyona badiiy talqinlarini kuzatish mumkin.

Qo'qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik qilgan o'zining ikki tildagi dilbar g'azallari bilan mazkur adabiy muhitida munosib o'rin egallagan zullisonayn shoira Nodiradir (1792-1842). Navoiy an'alarini izchil davom ettirgan shoira mazmunan teran badiiy barkamol tatabbu asarlar hamda muxammaslar yaratdi. Shulardan biri shoiraning "Oqibat" radifidagi tatabbu-g'azali bo'lib, u Navoiyning "Badoyi' ul-bidoya" devonidan o'rin olgan "Oqibat" radifidagi g'azallariga ergashib, yozilgani ma'lum bo'ladi [Navoiy, 1987: 91-92].

Nodiraning bu yo'lda muvaffaqiyatlarga erisha olganligini tatabbu-g'azali quyidagi misralari misolida kuzatish mumkin:

Zohido, ishq muhabbat ahlini ma'zur tut,
Yor ko'yida na bo'ldi shayx San'on oqibat...
Ohkim, bo'ldi yana subhi nashotim shomi g'am,
Chehra pinhon etti ul xurshidi tobon oqibat.
Garchi bor erdi musaxxar devlar farmonida,
Poymoli xayli mo'r o'ldi Sulaymon oqibat [Nodira, 1963:91].

Nodira ham ustoz an'anasini davom ettirib, badiiy san'atlardan unumli foydalanganki, bu lirik qahramon ruhiyatni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Shoira yuqoridagi birinchi baytda talmehli qofiyani poetik ifodaga olib kiradi. Shu lahzadayoq she'rxon xotirasida yor ishqida ne malomat-u mashaqqatlarga muhtalo bo'lgan ilohiy dil sohibi shayx San'on qismati gavdalanadi. Muhimi shundaki, Nodira lirik qahramonining ishq ham zohidona ishq bo'lmay, balki shayx ishqiga monand haqiqiy ishqqa mansub ekanligi badiiy matndan ma'lum bo'ladi. Mazkur ikki xil ishq tasvirida tazod san'ati vujudga kelgan. Keyingi baytda esa sharq she'riyatidagi an'anaviy quyosh poetik obrazi asarga o'ziga xos joziba olib kirgan. Taniqli navoiyshunos Yoqubjon Is'hoqov o'rinli qayd etganidek: "Ma'lumki, traditsiyada "quyosh" (ma'shuqa husniga nisbatan ham, may jamoliga nisbatan ham, olam-borliqqa nisbatan ham) doimo ijobiy ramz sifatida ishlatilgan" [Is'hoqov, 1983:110].

Agar tasvirga shu nuqtayi nazardan yondashsak, Nodiraning ham quyosh poetik obraziga murojaat etishi shunchaki tasodif bo'lmay, balki g'azal ibtidosida oshiq qalbidagi hijron iztiroblari unga shafqatsiz azoblar bergan bo'lsa, g'azal intihosida quyosh obraz vositasida o'z o'rnini vasl quvonchlariga berganligiga nozik ishora qilingan. Shu bilan birga, quyoshning yuz ko'rsatishi orqali she'riy san'atlardan biri – tashxis (jonlantirish) yuzaga kelganki, bu hol asar badiiyatiga o'ziga xoslik baxsh etgan.

Shoiraning "Oqibat" radifidagi g'azalida ham salaflari ijodidagi mavjud ramziylik to'liq saqlangan bo'lib, uning lirik qahramoni ham solik-oshiq. Shu o'rinda bir muhim masalaga ham aniqlik kiritish o'rinlidir. Adabiyotshunos Iqboloy Adizova o'zining "Muhabbat ixtiyor et..." maqolasida Nodira ijodini birinchilar qatorida yangicha talqinlar asosida tahlil qilib, quyidagi o'rinli mulohazani bildirgan edi: "Nodira Umarxonni o'ziga shariat, tariqat, ma'rifat yo'lida rahnamo deb bilganini his etamiz. Chunki Amir Umarxon ko'nglini Alloh ishq zabt etgan solik inson edi. Mo'tabar ustoz Umarxonning fojiali vafoti Nodira ko'ngliga, hayotiga katta zarba bo'ldi. Uning she'riyatida mahzunlik kuchaydi. Ammo Nodira she'riyatini faqat Sayid Umarxondan ayriliq izhori deb baholasak, nihoyatda jo'n, biryozlama tushungan bo'lamiz. Uni keng qamrovli zaminidan yulib olib soxtalashtiramiz. Chunki shoira she'riyatining ildizi chuqur. Ma'no mohiyati juda teran va bepoyon" [Adizova, 1993:3]. Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashsak, shoira Nodiraning "Oqibat" radifidagi tatabbu-g'azalida ham olima ta'kidlagan mahzunlik kayfiyati yaqqol seziladi. Undagi lirik qahramon ham Haq oshig'i. U har qancha urinib, "vasl uyin obod qilish"ga ahd-u paymon qilmasin, hijron deb atalmish "seli g'am" bu imoratni vayron etadi. Solikning ko'ngli hijron azoblari tufayli visol uyin vayronasiga aylangan. Uning qalbidagi "zahmi ishq"dan pinhonalik qolmay o'z niyatlarini oshkora aytishga bel bog'laydi. Unga vafo haqida ahd-u paymonlar qilib, oxir oqibatda "tarki vafo" qilgan "ahdi yalg'on"lardan iztirobga tushadi. Undaylar shoira nazdida subutsiz va oqibatsiz kimsalar bo'lib, Haq ishqidan bexabar va benasib kimsalardir. Ularning ishlari doimo dilozorlikdan iborat. Lirik qahramon timsolidagi solik katta umidlar bilan boz visol etaklarini tutishga harakat qiladi. Ammo u bu yo'lda qancha urinmasin, uning intilishlari hamda istaklari "hajr ilgida" pora-pora bo'ladi.

Tatabbu-g'azalning birinchi baytda Shayx San'on obrazining tasviriga kirilishi lirik qahramon niyatlarini yanada oydinlashtirishga yordam bergan. Muhimi, tasvirning shu nuqtasida solikning ishq zohidona ishq emasligi ma'lum bo'ladi. Shuning uchun ham lirik qahramon zuhd ahlidan "ishq-u muhabbat ahlini ma'zur tut" ishini so'rab, o'z niyatlarini yor ishqida ne kuylarga tushgan shayx San'on taqdiriga ishora etish orqali badiiy dalillaydi. Tasvirning shu o'rinda she'rxonga yana bir haqiqat, ya'ni solik ishqining qat'iyligi, u ilohiy jamol maftuni ekanligi ma'lum bo'ladi. Hijron azoblaridan lirik qahramonning dili shikasta. Uning qon bo'lgan yuragi "gavhari ashk" o'rnida ko'zlaridan marjon bo'lib oqadi. Ammo uning niyatlari sarobga aylangan emas. Doimo visol ilinjida. Faqat shu shirin tuyg'ugina unga umid bag'ishlaydi. Hattoki tonggi quvonchlarini "shomi g'am" bulutlari egallab olgan bir paytda zarrin quyosh pinhona bo'lsa-da, o'zining husn-u jamolini unga namoyon etadi. Quyosh poetik obrazning tavirga kiritilishi muhim badiiy estetik vazifai bajarishga yo'naltirilgan bo'lib, go'yoki u o'zining saxiy nurlari ila vayronaga aylangan oshiqning shikasta ko'ngliga taskin va tasalli olib kirganday bo'ladi. Eng muhimi, nur solikni vasl

koshonasi tomon yetaklayotganiga va uning ilohiy nurdan bahramand bo'lganiga nozik ishoralar qilingani ma'lum bo'ladi.

Poetik tasvir g'azal tadrijida yanada kengroq ma'no kasb etib beradi. Ayniqsa, Sulaymon payg'ambar va chumolilar haqidagi rivoyatga ishora etilishi g'azaldagi poetik fikr hamda muallif niyatiga yanada o'ziga xos falsafiy mazmun va she'riy joziba baxsh etadiki, bu tatabbu-g'azal mundarijasini boyitishga xizmat qilgan. G'azal maqta'sida esa ramziylik yanada yuksak poetik cho'qqiga ko'tarilgan. Unda inson umrining foniyligi, umr gulistonining mangu emasligi, qachonlardir uning ham xazon bo'lishi muqarrar ekanligi alohida e'tibor qaratilgan. Shoir bu bilan kishilarni umidsizlikka emas, balki yashashga, hayotni, insonni sevishga, Allohdan bandasiga in'om etilgan hayot deb ataluvchi ne'matdan bahramand bo'lishga da'vat etayotganligi ma'lum bo'ladi. Demak, inson o'z umrini bemazmun va besamar, behuda o'tkazmasdan insonga xos yashamog'i, yashaganda ham shoir orzu qilganidek, "muhabbat ixtiyor etib" oshiqlik maqomini egallash lozimligiga da'vat etilganiga she'rxon to'la ishonch hosil qiladi.

Yuqoridagi qisqacha kuzatishdan shunday xulosaga kelish mumkin: birinchidan, Navoiyning "Oqibat" radifidagi g'azallarida mahorat bilan qo'llangan she'riy san'atlar Nodiraning tatabbu-g'azalida bevosita rivojlantirilgan. Ikkinchidan, Navoiy asarlaridagi badiiy san'atlarning qo'llanishida g'azal mavzusi davr va zamon talablari hamda lirik qahramon kayfiyati asos bo'lib, ko'proq tazod, talmeh, tashbeh san'atlaridan foydalanish imkoniyatini vujudga keltirgan bo'lsa, Nodira g'azallari mundarijasiga ham bu an'ana to'la mos kelganligi bilan muhim ahamiyat kasb etgan. Uchinchidan, Navoiyga izdosh sifatida tatabbu bog'lagan shoir ham ustoz g'azallaridagi mavjud timsol va she'riy san'atlarni shunchaki o'zlashtiribgina qolmay, balki uning o'zi ham yangi poetik timsollar bilan birga, boshqa she'riy san'atlarga ham murojaat qila oliganki, bu muhim badiiy qimmat kasb etgan. To'rtinchidan, tasavvufning naqshbandiylik ta'limotini o'z ijodida izchil rivojlantirgan mutasavvif shoir Alisher Navoiy ijodidagi orifona g'oyalar Nodira tomonidan ham o'ziga xos poetik ramz va ranglarda ifodaga ko'chganligi bilan muhim badiiy qimmat kasb etgan. Beshinchidan, tatabbu-g'azallarda izchil tarzda saqlanuvchi she'riy unsurlardan biri radifning saqlanganligi g'azal kompozitsiyasida "asosiy bog'lovchi" (A. Hayitmetov) vazifasini bajarib, tayanch nuqta sifatida poetik maqsadning to'la ro'yobga chiqishiga xizmat qilgan.

Shuningdek, Qo'qon adabiy muhitida faol qalam tebratgan mumtoz shoirlardan yana biri Mavlono Muqimiydir. Muqimiy ham Navoiy she'riga javobiya tarzida "Bor" radifli tatabbu yozgan. Ammo u Navoiyning boshqa she'riga, aniqrog'i, "Badoye' ul-vasat" devonidagi 145-raqamli g'azalga tatabbu tarzda yaratilgandir [Navoiy, 2011: 151]. Unda Navoiy she'ridagi vazn – ramali musammani maqsur, radif, mavzu va qofiya hamohangligi saqlangan. Muqimiy hatto Navoiy qo'llagan uchta qofiya: ori, nori va zunnori so'zlarini aynan takrorlagan. Navoiy she'ri o'z gulruxsoriga ega bo'lgan oshiq endi har qanday sarv-u gul hamda bog' sayridan voz kechsa arzini ta'kidlash bilan boshlanadi. Keyingi baytlarda bu fikrning turli qirralari ochilgan, so'nggi ikki baytda so'fiyona qarash olg'a suriladi. Ya'ni faqir yo'lini tanlagan solik uchun bu dunyoga bog'liqlik og'irlik qiladi. Shu sababli barcha bog'lanishlardan uzilib, "Ul sori", ya'ni poklik manzilining shohi Haq sari bormoq lozim. Faqir yo'lga kirish uchun vobastalikdan uzilgach esa, tuproq kabi xoksorlikni ham egallash lozim bo'ladi. Ulug' shoir shu tarzda tasavvufning muhim nazariy masalasidan birini badiiy talqin qiladiki,

shu bilan g'azal boshidagi ma'shuqning Haq, oshiqning esa solik ekanligi ma'lum bo'ladi. Muqimiy tatabbusi esa bunday emas. U dunyoviy mazmundagi she'r. Tatabbuda boshdan-oxir hayot mahbubasi, uning g'oyatda go'zalligi, shu sababli oshiqlarining ko'pligi va turli-tumanligi, kim agar shunday go'zalga erishsa, har qanday pariga ko'ngil qo'yishdan or etsa arzishi g'oyat ishonarli tarzda tasvirlangan. Lirik qahramon ham hayotiy shaxs. Uningcha, "Sham beparvona, gul bebulbul-u bequmri sarv bo'lmas".

Shunday ekan, hayotdagi har bir inson ham xayoliy mahbubga emas, hayot go'zaliga ko'ngil qo'yib, u bilan bo'lgani ma'qul. Lirik qahramon ishq, oshqlik va ma'shuqlikni ana shunday hayotiy tushunadi. Bunday tasvir ko'rinishi umuman Muqimiy ijodiga va, shuningdek, bu davr ijodkorlarining aksariyatiga xos edi.

Muqimiy tatabbusidagi ma'shuqa siymosi g'oyatda jonli tasvirlangan. U g'oyatda go'zal, shu bilan birga, nihoyatda sho'x va hozirjavob hamdir. O'z oshig'i bilan emin-erkin gaplashadi. Uning oshiqona iltimoslariga hazil bilan ko'p ma'noli javob beradi. Uning o'zining tutishi, noz va so'zlari g'oyatda yoqimli va hayotiydir. U oshiqqa azob beruvchi, hijronda uni qiynovchi, ag'yorga iltifot qilib, haqiqiy oshig'ini g'amga duchor etuvchi an'anaviy ma'shuqa timsoliga o'xshamaydi. Aksincha, oshig'iga muhabbat bilan javob qaytaruvchi, sevilganidan shod, biroq yoqimli nozlar qilib, ham o'zi rohatlanuvchi, ham oshig'ini zavqlantiruvchi hayotiy go'zaldir. Shoir oshiq va ma'shuq uchrashuvi va munosabatining bir lahzasini shunday chizadi:

Bog'i vaslidin uzarga olma qilsang iltimos

Nozlar birla degaykim: – Olma yo'qtur, nori bor [Muqimiy, 1960: 185].

Baytda ma'shuqa bog'bon qiz sifatida chizilgandek taassurot qoldiradi. U o'z oshig'i bilan bog'da uchrashgan. Shoir "Bog'i vasl" iborasida ham uchrashuv joyini, ham yorning go'zal siymosini chizgan. Baytning ikkinchi misrasidagi "olma yo'qtur" iborasida iychom, "nori bor" iborasida esa lutf san'ati qo'llangan. Olma yo'qtur iborasi avvalo, olma yo'q, ya'ni olma mevasi yo'q ma'nosida kelgan bo'lsa, soniyan, ol ma deyish yo'q, ya'ni yor visoliga yengilgina erishish yo'q, unga erishish yo'lida ham ko'p mashaqqatlar mavjud ma'nosida berilgan. Nori bor iborasi esa avvalo nari bor, ya'ni olma so'ragan oshiqqa yorning yo'q, bor ket degan munosabati ma'nosida bo'lsa, ikkinchidan, olma yo'q, ammo anor bor degan javobi tarzida ham berilgan. Oshiq va ma'shuqaning visol bog'idagi uchrashuvi, o'zaro samimiy va hazilga yo'g'rilgan munosabatlari g'oyatda hayotiy chizilgan. Biroq Muqimiy tatabbularining hammasi ham muvaffaqiyatli chiqqan deb bo'lmaydi. Masalan, shoirning "Ko'rmay" radifli tatabbusi haqida shunday deyish mumkin. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, Muqimiy ijodida ham shakllanish davrining nisbatan xomroq namunalari bo'lishi tabiiy. Ammo shoirning Navoiy g'azallariga bog'langan "Bor edi", "Kim desun", Amiriy g'azaliga bog'langan "Qil" radifli va boshqa ko'plab tatabbulari mahorat bilan yozilgani ma'lum bo'ladi.

Shunday shoirona mahorat sirlari Furqat tatabbularida ham ko'zga tashlanadi. Shu jihatdan shoiring hammaga ma'lum bo'lgan "Kelinchak" nomi bilan mashhur bo'lgan tazmin-tatabbusi diqqatga sazovordir. U ozar shoiri Fuzuliy g'aaliga bog'langan bo'lib, Furqat hatto salaf g'azalining birinchi misrasini tazmin sifatida keltiradi. Furqat ham Fuzuliy g'azali vaznida – ramali musammani mahzufda yozilgan bo'lib, u ham ozar shoiri kabi yor go'zalligini ulug'laydi. Fuzuliy she'rida an'anaviy mahbubning go'zal siymosi chizilgan. Uning qaysi xalq yoki hududga mansub ekanligi yaqqol sezilmaydi. Zero, u Sharq she'riyatidagi an'anaviy go'zal sifatida tasvirlangan

bo'lib, uning oshig'i ham an'anaviy tarzda fikrlovchi lirik qahramon holida berilgan. Furqat tatabbusida esa bunday emas. Unda muayyan hudud va o'sha yerdagi xalqqa mansub go'zal siymosi chizib berilgan. Furqat tatabbusiga jiddiy nazar tashlansa, unda aniq Farg'ona go'zali, aniqrog'i, kelinchagi siymosi chizilganini sezish mumkin. Bundan tashqari, Furqatning Navoiy g'azallariga bog'lagan "Isi", "O'lturgusi" va "Aylagach" radifli tatabbulari ham ana shunday mahorat bilan yaratilgan tatabbu-g'azallar bo'lib, ularning har biri alohida tahlillarni taqozo qiladi.

Bularning hammasi XIX asr birinchi yarmi she'riyati o'zbek, tojik va ozarbayjon mumtoz adabiyotlarining boy va yuksak badiiy an'analari asosida rivojlanganini ko'rsatadi. Muhimi shundaki, bu adabiy an'analari rivojida tatabbunavislik alohida o'rin tutadi. Chunki bu davrda tatabbunavislik boshqa davrlarga nisbatan g'oyat keng qirrali bo'ldi.

O'zbek she'riyatida Amir Alisher Navoiy birinchi bo'lib tatabbunavislikni maxsus adabiy yo'nalish darajasiga ko'tarib, tatabbulardan devon tuzgan bo'lsa, undan keyin ham bu an'ana davom etdi. Voqean, XIX asr va XX asr boshlaridagi Qo'qon adabiy muhitida tatabbunavislik adabiy yo'nalishi g'oyat keng rivojlandi. Shuning natijasida, 1821-yilda Qo'qonda Fazliy Namangoniy tomonidan tuzilgan "Majmuayi shoiron" tazkirasi boshdan-oxir tatabbulardan iborat bo'ldi.

Agar XVII-XVIII asrlarda tazmin-tatabbu, mazmunda pand-nasihat kuchli bo'lgan mav'iza-tatabbular yozish keng tus olgan bo'lsa, XIX birinchi yarmi tatabbunavisligida so'z o'yinlari, she'riy san'atlar va, umuman, shakl unsurlari ustunlik qiluvchi masnu' tatabbular yozish avj oldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida esa, ma'noga e'tibor berish kuchayishi tufayli mazmun va shakl birligi aks etuvchi matbu' tatabbular yaratish ommalashdi.

Shunday qilib, XVII-XIX asrlar va XX asr boshlari tatabbunavisligi jarayonida o'zbek she'riyati ham mazmunan, ham shaklan boyidi. Tatabbunavislik natijasida boshqa xalqlar adabiyotidagi badiiy-g'oyaviy yetuk asarlar bilan bellashadigan va hatto ko'p jihatdan ulardan ustunlik qiluvchi mumtoz asarlar paydo bo'ldi. She'riyatimiz, ayniqsa, g'azalchilik borasidagi tatabbunavislik yuksak muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu borada yaratilgan mumtoz lirik asarlar o'z davrida va keyingi davrlarda ham badiiy ijodning yuksak namunalari sifatida e'tirof etilib, barcha zamonlarda hamma ijodkorlar uchun adabiy ilhom manbayi bo'lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуқодиров А. Навоийнинг татаббунавислик маҳорати // Ўзбек адабиётшунослиги масалалари, 6-китоб. – Хўжанд: Раҳим Жалил номидаги Давлат нашриёти, 1997. – 170 б.
2. Адизова И. Муҳаббат ихтиёр эт... // ЎзАС. 1993, 7 май.
3. Ваҳоб Раҳмон. Мумтоз сўз сеҳри. – Тошкент: O'zbekiston, 2015. – 440 б.
4. Ваҳоб Раҳмон. Шеър санъатлари. – Тошкент: SHARQ, 2020. – 72 б.
5. Жумахўжа Н. Миллий мустақиллик мафкураси ва адабий мерос // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, 1-сон, 3-6-б.
6. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 168 б.
7. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. (Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашри). – Тошкент: O'ZBEKISTON, 2014. – 320 б.
8. Муқимий. Танланган асарлар. 2 томлик. 1-том. – Тошкент: Ўздавнашр, 1960. 185-бет.
9. Нодира. Девон. – Тошкент: ЎзФН, 1963. – 220 б.
10. Нодира – Комила. Девон. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001. – 350 б.
11. Навоий А. МАТ (Мукаммал асарлар тўплами), 20 томлик, 1-том.

- Тошкент: Фан, 1987. – 724 б.
12. Навоий А. Хазойин ул-маоний. Учинчи девон. Бадоеъ ул-васат. – Тошкент: TAMADDUN, 2011. – 740 б.
13. Саломов Ғ., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. – Тошкент: Фан, 1979.
14. Увайсий. Кўнгил гулзори. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. – 84-б.
15. Файзуллоев Б. Ўзбек шеърятига татаббу тарихи ва маҳорат масалалари (XVII-XIX асрлар ва XX аср бошлари ғазалчилиги асосида). – Тошкент: Тамаддун, 2021. – 148 б.
16. Фурқат. Танланган асарлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975. – 239 б.
17. Шарқ мумтоз поэтикаси. Биринчи китоб. – Тошкент: ЎСЭ, 2008.
18. Шодиев Э. Навоий татаббуларига оид баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997, 2-сон, 7-13 б.

ADABIY TA'SIR VA POETIK TAFAKKURNING YANGILANISHI

Adizova Iqboloy Istamovna

*Filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU,
ataullo98@mail.ru*

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/NKKM5154

Abstrakt. Mazkur maqola, “Majolis un-nafois” asosida, Navoiy va Husayniyning o‘zaro adabiy ta’siri, adabiy hamkorlik va maslakdoshlik maqomini yoritishga bag‘ishlangan. Do’stona munosabatlarning ijodiy shakllanish va takomillashuvdagi ahamiyati belgilangan. Ijodkorlarning tafakkur va ifoda uyg‘unligi hamda o‘ziga xosligi talqin etilgan. Mahorat qirralari aniqlangan. Qo‘yilgan masala ularning nazira hamda tatabbulari orqali ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: nazira, irfoniylik, tasavvuf, tarjeh, an’ana va yangilanish, adabiy jarayon, raviy, qofiya, badiiy san’atlar.

LITERARY INFLUENCE AND RENEWAL OF POETICAL THOUGHT

Abstract. This article examines the mutual literary influence between Alisher Navoi and Husayni, as reflected in Navoi’s Majolis un-nafois, with a focus on their literary cooperation and friendship. The study highlights the significance of their personal and professional relationship in fostering their creative growth and enhancing their works. It explores the harmony in thought and expression between the two poets, while also emphasizing their individual originality. The article identifies the limits of mastery in their respective literary contributions and explores the key questions raised through their observations and mutual influence.

Keywords: nazira, irfan, tasawwuf, tarjeh, tradition and renewal, literary process, rawi, qafiya, artistic arts.

“Majolis un-nafois” XV asr adabiy jarayonining ko‘zgusidir. Unda Navoiy, davrining 459 allomasi qatorida, Husayniy ijodiga ham alohida e’tibor qaratgan. Asar tarkibidagi sakkiz majlisdan so‘nggisi to‘liqligicha unga bag‘ishlangan. Asarning yaratilish maqsadidan kelib chiqib, majlisda, asosan, Husayniyning ijodkorligi bilan bog‘liq masalalar yoritiladi. Muallif qo‘yilgan muammoni keng qamrovda, adabiyotshunos olim sifatida nazardan o‘tkazadi. Qadrdon do’ssti ijodiy faoliyatining o‘ziga xos, noyob xususiyatlarini, betakror g‘aroyibliklarini ochib beradi.

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alishir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmiş iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o’qitish bo’yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San’at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO’XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g’azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go’zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o’zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo’llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug’aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622